

UDK:902

MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOV  
ADIB ABDULLA QODIRIYNING USTOZI

Ravshanova Umida  
Qashi DU tayanch doktoranti

**Annotatsiya**, ushbu maqola Munavvar Qori Abdurashidxonov va Abdulla Qodiriy munosabatlari haqida yozilgan bo'lib, bu ikkala shaxs o'rtasidagi munosabatlar maqolalar va tarixiy xotiralar orqali ochib berishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** didaktik, nasriy, hikoya, muallim, maktab, gazeta, raddiya, mustamlaka, mustaqillik.

**Annotation**, this article is written about the relationship between Munavvar Qori Abdurashidxonov and Abdulla Qadiri, which helps to reveal the relationship between these two characters through articles and historical accounts.

**Keywords:** Didactic, prose, story, teacher, school, newspaper, rejection, colonialism, independence.

**Аннотация**, данная статья написана о взаимоотношениях Мунаввар Кори Абдурашидханова и Абдуллы Кадыри, что помогает раскрыть взаимоотношения этих двух персонажей посредством статей и исторических свидетельств.

**Ключевые слова:** дидактика, проза, рассказ, учитель, школа, газета, неприятие, колониализм, независимость.

Bugungi kunda har ikkala shaxs tarix va adabiyotimizda mustahkam o'rinn tutadi. O'zbek adabiyotining ulkan namoyondasi, o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy 20 - yillardagi muhim ijtimoiy - madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisidir.

Abdulla Qodiriy 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrida tug'ilgan. U XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandası, o'zbek romanchiligining asoschisidir. 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Musulmon maktabida (1904—06), rus-tuzem maktabida (1908-12), Abulqosim shayx madrasasida (1916—17) ta'lif olgan. Shuningdek, Moskvadagi adabiyot kursida (1925—26) o'qigan. Eski shahar oziqa qo'mitasining sarkotibi (1918), «Oziq ishlari» gazetasining muharriri (1919), Kasabalar sho'rosining sarkotibi (1920), «Mushtum» jurnali tashkilotchilaridan va tahrir hay'ati a'zosi (1923—26) vazifalarida ishlaydi. «To'y», «Ahvolimiz», «Millatimga», «Fikr aylagil» kabi she'rlari, «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz» hikoyasi yozuvchining dastlabki asarlari edi. (1914-15). «Uloqda» hikoyasi (1916), «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan», «Toshpo'lat tajang nima deydir?» (1920) kabi satirik hikoyalar muallifi. «O'tgan kunlar» (1924-26), «Mehrobdan chayon» (1929) romanlari, «Obid ketmon» (1934) qissasi yozuvchining

ulkan mahoratini o‘zida mujassam etgan. Abdulla Shunosiyning «Fizika» (1928), N. V. Gogolning «Uylanish» (1935), A. P. Chexovning «Olchazor» (1936) asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Abdulla Qodiriy 1926 yilda «Mushtum»da bosilgan «Yig‘indi gaplar» maqolasi tufayli qisqa muddat qamalgan. 1937 yilning 31 dekabrida esa «xalq dushmani» sifatida ikkinchi bor qamoqqa olinib, 1938 yil 4 oktyabrda Toshkent shahrida otib tashlangan. Uning asarlari 1956 yildan boshlab oqlangan. Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti laureati (1991), «Mustaqillik» ordeni bilai mukofotlangan (1994).

Abdulla Qodiriy 1937 yilning 31 dekabrida qamoqqa olindi. «Menga qo‘yilgan ayblarni boshdan oyoq rad etaman. Haqiqat yo‘lida hech qanday jazodan, qiyonoqdan qo‘rqlayman. Agar otmoqchi bo‘lsalar, ko‘kragimni kerib turaman...» Abdulla Qodiriy 1938 yil 4 oktyabrda Toshkentda otildi. Uning asarlari XX s’ezddan so‘ng, 1956 yildan boshlab yangidan nashr etila bordi. 1990 yilda Respublika prezidenti Farmoni bilan A. Qodiriy nomidagi Respublika Davlat mukofoti ta’sis etildi.

Munavvar qori Abdurashidxonov o‘ziga xos didaktik xarakterdagи hikoyalari, she’rlari va bolalar uchun tayyorlangan darlik va qo‘llanmalar muallifidir. Bugungi kunda Munavvar qori ta’lim sistemasining 3 bosqichli tizimi asoschisi, o‘ziga xos “Namuna” nomidagi maktabi, muallimlar tayyorlovchi 6 oylik kurs asoschisi. Munavvarqori Abdurashidxonov 1878 yilda Toshkentning Shayhontohur dahasidagi Darxon mahallasida dindor ziyoli oilasida tavallud topgan. Otasi Abdurashidxon madrasada mudarris, onasi Xosiyatxon mahallaning otin oyisi bo‘lgan. Munavvarqori ilk saboqni ota-onasidan, mahalla maktabidan olib savodini chiqardi. So‘ngra Toshkentdagi Yunusxon madrasasida va Buxoro madrasasida ta’lim oldi. 1904 yildan boshlab faol ijtimoiy hayotga kirib bordi.

«Sho‘roi Islom» tashkilotining (1917 - 18) ideologи va rahbari sifatida faoliyat ko‘rsatdi. 1929 yilda nohaq millatchiliqdа ayblanib qamoqqa olindi va 1931 yilda otib tashlandi. Uning hoki Moskvadagi Vagankovo qabristonidadir. Munavvarqori 1903 yildan jadid maktablari ochib, dars berdi. Shunday maktablar uchun tovush usulida yozgan «Adibi avval» («Birinchi adib», 1907) alifbe kitobi, «Adibi soniy» («Ikkinchi adib», 1907. Unda «Himmatli faqir» she’ri keltirilgan) darsliklari bir necha bor nashr qilingan.

1908 yil uning «Sabzazor» (to‘plam), «Yer yuzi» (geografiyadan), «Tajvidal Qur’on» (Quronni o‘qish usulini o‘rgatgan) kitoblari ham bosilib, yangi usuldagи maktablarda darslik sifatida qo‘llangan. 1906-1917 yillarda jadid gazetalarida muharrirlik qildi, «Xurshid», «Najot», «Kengash» kabi gazeta va bir qancha jurnallarga asos solgan, jadidlar teatri targ‘ibotchisi bo‘lgan.

Munavvarqori millatimizning ma’rifiy kelgusi va mustaqillik yo‘lini munavvar qilib ketgan zotdir. Uning Turkiston Davlat Universitetining birinchi rektori ekanligi hammamizga tanish. Munavvar qori Abdurashidxonov uslubchi sifatida Hamza

Hakimzoda Niyoziyga qator yo'llanmalar va maslahatlar bergangagini bilamiz. Shu qatorda Abdulla Qodiriyning ham Moskvadagi o'qish pulini uning yordamida to'langanligi hammamizga tanish."U ulug' adib Abdulla Qodiriyni Moskvaga borib o'qishi uchun vaqf hisobidan mablag' ajratgan.[1:48]"

Abdulla Qodiri ham Munavvar Qorini qadrlagan.

"inqilob barakasinda hisobda ham bo'limg'an allaqancha yangi sistem ajib, g'arib ixtiolar yuz berdi va bermakdadirkim, bu yangi ajoyib aul-tarasha bozorlarni yozub ko'rsatuv inson toqatidan favq bir ishdir. Butun dunyoning teatru bozorida, adabiyot tarixida ko'rulmagan ravishda yangi nafis o'zbak teatrulari, o'zbak adabiyotlari, o'zbak artistlari, muallimlari, munajjimlari, muhandis muhtari'lari, muharrir va imlochilari, qompozito'r rassomlari, shupurgichi arobakashlari, qo'yingchi, domlalarcha qilub so'zni qisqartg'anda va hokazo va hokazolari o'zbaklarning yangi sistem sanoi nafisalari jumlasidandirlar..."[2] Inqilobdan so'ng rus "og'alar"imizdag'i o'zgarishlar A. Qodiriyni hayron qoldiradi.

Bu Mustafo Cho'qay o'g'li xotralaridan ham shunday fikrlar uchraydi[2:20].

O'zbak eliga yana bir bashorat![]-deydi Abdulla Qodiry.O'zbek elidan boshqacha betarlik maydonga kelibdi degan ma'noda o'z do'sti yonini ola turib Munavvar qoriga qilingan hujumda himoyaga chiqadi.

«Qizil bayroq» idorasi ko'zidan yoshini oquba-oquba alla narsalarni so'zlab, «avanturist»ning zarbasini, «mantiqsizlik va zolimlik», deydir. Shuning ila «Qizil bayroq» o'zining yuqorida so'zlagan «Betaraf bo'lg'an holda» jumlasini unutub yuboradir-da, Munavvarga ochiqdan-ochiq hujum eta boshlaydir.

Mana bu «betaraflik» o'zimizning ota-bobodan qolq'an eski betaraflik emas, «Yangi sistem betaraflik!»[2] Bu — «Qizil bayroq» gazetasining yangi ixtiroyi, yangi ijodi!

Munavvar Qoriga muxoliflar ustidan kinoyali kuladi.Ular Munavvar Qorini haqorat qilganliklariga kinoya qiladi.«Hiylagar, makrchi, juvonmarg!» kabi ular ishlatgan so'zlarni alohida ajratib ko'rsatadi.Munavvar Qori olib borayotgan ishlardan Abdulla Qodiriyydek millatparvar insonlargina tushuna olar edi deyish fikridan yiroqmiz. Aksincha, Ismoilbek Gaspiralibey aytganidek, Birov ham mulla Mo'minga o'xshagan "medalistdir"[3:113]

Ismoilbek Gaspiralibey mulla Mo'minni ayblamaydi, lekin Ostroumovga sha'ma qiladi. Rus mustamlakachilik tizimining qanchalik zalvorli holatida harakat qilayotgan ma'rifatparvar vatandoshlarimizni matbuotda qo'llab - quvvatlaydi. "Ziyoli bir odamning qo'l ostida bo'lgan gazeta boshqa muharrirlar haqida bozor g'iybatlariga o'xsharnarsalar yozmasligi lozimdir. Chunki "ne krasivo"(yaxshi emas)" - deydi. G'iybat ekanligini isbot qilish uchun esa, "Munavvarxon(Munavvar Qori Abdurashidxonov haqida bormoqda) Toshkentda takyaxona, choyxona,to'kmaxonalarni munavvar etib, umr kechurgan ekanlar" - Bular g'iybat

bo'lmasa nima?" [3:114]deb ta'kid;aydi va ““Xurshid” muharririning yozgan narsalari yomon bo'lsa, ko'rsating, rad qiling”- deydi.

Albatta, bunday munozaralar ichida o'z ijodini matbuotda ko'rish umudida o'z millatparvarlari yo'liga to'ga'noq bo'layotganini tushunmagan yosh ma'rifatparvarlardan foydalanilgan.

Munavvar Qori Abdurashidxonov ham “Qizil bayroq” gazetasining 1922-yil 7-mart sonida “Hujummi? Munozarami?” maqolasida bu vaziyatga izoh beradi. Ya'ni, “Qizil bayroq” gazetasining 131-sonidagi “Ilmiy xizmat” maqolasiga javob beradi.U shunday yozadi ““Birov”(Bu birov taxallusi bilan maqola yozgan Sanjar Siddiq, Siddiqov Bosit) hazratlari”Qizilbayroq”ning bir betini to'ldirib, menga qilingan hujumning ruhi va xulosasi. Kitoblarim xususida man shuni bilamanki, “Havoyiji diniya” - diniy bir kitob. Oning ila “Birov”larni birovlar ila ishi va aloqasi yo'q ham “Havoyiji diniya”mdan 12 yil muqaddam butun haq tab'ilari ila bir shirkatg'a 225 so'mbadalig'a sotilg'on. Binoanalayh, oning sotiluvi va sotilmovini qornim ila aloqasi yo'q”[4:255]. Shu jumlanı o'zida fisqu fasod anqib turibdi. Diniy fanlarni o'qitilishiga hukumat qarshi, xalq qarshisida ularni obro'sizlantirish uchun esa, yoshlardan foydalanish bo'lmoqda. Bu holatni teran anglagan va qarshi bo'lgan yo'lboshchilarimiz ahvoli tarixdan qanday jazolarga tortilganligi ma'lum. Diniy ta'lim bera oluvchi ushbu darslikka ehtiyoj bo'lgandirku, sotilgan. Bu hukumat mafkurasi edi, unda qanday yo'l bila bo'lsa-da, targ'ib etish kerak edi. Mahalliy aholi esa, fikrlar, mafkuralar hujumi ostida qoladi. Faqat o'zining mustaqil qarashlariga ega bo'lganlar. Yot mafkuraga qarshi tura oladiganlar ajraladi, ular esa, Sovet mafkurasining qanchalik notug'ri mafkura ekanligini tushuna oladigan kishilar edi. Ana shunday shaxslar - jadidlar edi, ular hukumatning tozalash ishlarida yot fikrli shaxslar sifatida yoq qilindi. Fikrimizning isboti sifatida - ““Birov”” o'rtoq manim so'zlarimdan o'zig'a kerak joylarini terib, oning ustig'a o'sidan-da bir qadar ilova qilib, so'ngra tanqid va munozara qonunini tashlab, to'g'ridan-to'g'ri hujum boshlag'on. Manga bunday hujumlar endigina emas, balki “birov”lar hanuz onadan tug'ulmagan zamondan beri bo'ladur”- deb, Sanjar Siddiq yoshligiga sha'ma qiladi. Va fikrini davom etib, “Bir vaqtlar ostroumovchilar, ikkinchi vaqtarda ulamolar hujum etdilar. Man onlarning hujumlarig'a qaramasdan, hamon o'z maslagimda davom etdim. Bu kun “Birov”lar hujum etar ekan, ul hammani ishdan va maslagimdan to'xtata olmaydi”- deydi Munavvar Qori. Bu hujumni men javobga arzitmas edim, faqat manim majlisda aytgan so'zlarimni xiyonat tariqasida buzib yozilganligi meni javob berishga majbur etdi -deb yozadi Munavvar Qori o'z maqolasida. Yana maqolada shunday fikr bor, ya'ni Munavvar Qori har doim ham o'z qarashlarida turgani bilan ba'zida mustamlakachilat topshirig'ini bajarishga majbur bo'lagan. “ Man avvalg'I maslisda o'z fikrimnigina emas, rasmiy bir hay'atning fikrini ham 20-dakabrdan maorif sho'basida Maorif komissari, maorif mudiri va boshqa maorif ahllari tarafindan so'ylangan fikrlarning

tarjimonigina bo'ldim".[5]

Ushbu maqola orqali mustamlaka mafkurasi oshkor bo'lmoqda, endi e'tiborimizni "Birov"ni himoya qilgan xulosaga qaratamiz. Maqola so'ngifda xula yoziladi. "Xulosa, Qori afandini avom xalq orasidan chiqib, matbuot maydoniga qadam bosishi bilan tabrik etamiz"[1:257] - deb ifodalaydi. Demak, "Qizil bayroq" ma'muriyati kim? 1922-yil 8- martdan 1922- may oyigacha Akmal Ikromov gazeta muharriri bo'lgan. Akmal Ikromov Munavvar Qori Abdurashidxonovning shogirdi, u noiloj maqolani nashr etgan. Chunki gazeta Turkiston Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining afkor nashri edi[6:13]Aftidan, Akmal Ikromovnong faoliyati ma'qul kelmaganmi? Faoliyatni 1922 - yil 5-maydan 18-maygacha Abdulla Rahimboyev olib borgan. Darvoqe, Abdulla Rahimboyevni 2018 - yil 11- dekabrda Bobojon G'ofurov tomonidan e'lon qilingan fikrlarda Abdulla Rahimboyevni xiyonatda ayplashgan. Uni V. I. Lenin bilan muloqatda bo'lganligi haqida fikrga suyanib shunday ayblangan. Abdulla Rahimboyevni Stalin qo'llab - quvvatlagan deyiladi maqolada[7] . Men esa. Bu fikrdan yiroqman. Bu muastamlaka tuzum asorati. Mustaqillik buyuk ne'mat - qadriga yetaylik azizlar.

Munavvar Qori ustoz sifatida mana shu tuyg'ular qalbida tug'yon urayotgan ijodkor, fidokor o'qituvchi, millat rahnamosi, yo'lboshchi, vatanparvar insondir.

U haqida 30 yildan oshiq tadqiqot olib borgan san'atshunos olim Sirojiddin Ahmedov shunday yozadi: - "buyuk o'zbek sa'atkorlari Mannon Uyg'ur, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho'lpon, Iskandar Ikromov, Ikrom Akbarov, Oybek, shoir va san'atshunos Bahrom Haydariy, yozuvchi A'zam Ayub, tishunos Qayum Amazon, shoir Elbek, kinohujjatchi Malik Qayumov, O'zbekistondavlat, jamaat va fan arboblari Abdulhay Tojiyev, Abduvahob Murodiy, Akmal Ikromov, Bosit Qoriyev, shoir, kamyogar olim, professor Sattor Jabbor, Turkiyada yashagan olimlardan: Tohir Shokirzoda, Ibrohim Orif o'g'li Yorqin, Abduvahab Ishoq o'g'li O'qtoy, Sobir Yoqub, adabiyotshunos Hamid Sulaymon va boshqalar uning shogirdlaridir"[1:25].

Munavvar Qori Abdurashidxonov mohir pedagog, kreativ jamaat arbobi, islomshunos olim, Qur'onne yod biluvchi - Qori, publitsist, uslubchi, o'tkir fikrli maslahatchi, shaxmat ustasi, mohir avqofchi - o'z davrining haqiqiy lideri edi.

Shuningdek, mohir pedagok sifatida shogirdi qalbidan joy olgan edi. Abdulla Qodiriy o'tkir zehnli adib va shogird sifatida o'z vazifasini bajarishga harakat qildi. Millatdosh ustoziga yo'g'dirilgan toshlarga o'z ko'ksini tutib berdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov S. Millatpanoh, "Info Capital Group".T, 2019.
2. Chuqayev M. Istaqlol Jalloidlari: (1917-yil xotiralari),1992.
3. Abdullo Qodiriy. Yangi sistem betaraflik. 1922.Ziyouz.com
4. Ismoilbek Gaspirinskiy. Hayot va mamot masalasi. Ma'naviyat,2006.

5. Abdurashidxonov M. Hujummi? Munozarami? "Qizil bayroq", 1922 - yil 7- mart.
6. Nuriddinova F. Milliy matbuot fixristi. Mumtoz so'z, 2020.
7. Pressa.tj.